

"Nevatak" o'quy markaziga tashrif



01.02.2023

"Nevatak" o'quy markaziga tashrif

Joriy yilning 31 - yanvar kuni "Yer resurslarini boshqarish" hamda "Gidrotexnika qurilishi" fakultetlari talaba-yoshlarini poytaxtimiz markazi Mirobod tumani Sayilgoh ko'chasiga joylashgan "Nevatak" o'quy markazida tashrif buyurishdi. Yoshlarga qulay sharoyit yaratish ularni ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusini talabalar orasida keng targ'ib qilish maqsadida kompyuter savodxonligini oshirish bo'yicha mahorat darsi tashkillashtirildi.



Tadbir yanada qiziqarli bo'lishi uchun blogerlar ham taklif qilinib, ular bilan qiziqarli savol-javoblar o'tkazildi. Talabalarimiz bu tadbirdan o'zlariga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni olish bilan bir qatorda ushbu o'quv markazida oq'ish istagi bor talabalarimiz ham bo'ldi. "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti dekan muovini hamda fakultetlar tyutorlari tashabbusi bilan tashkil etilgan tashrif barcha talabalarga manzur bo'ldi. Aynan ular o'qiyotgan soha bo'yicha ham o'qish kerak degan xulosaga kelishdi.

**"Yer resurslarini boshqarish" fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova
axboroti**